



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 261 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida).....	14
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish	20
Sattarov Umirzoq	
Современные банковские продукты	24
Хужамуратов Аббос Мардонович	
Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi.....	29
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики.....	33
Ибрагимов Тимур Ибодуллаевич, Асланова Дилбар Хасановна	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi.....	39
Kabulov Baxram Kuzibaevich	
Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni.....	45
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish.....	51
Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li	
Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari.....	59
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	66
Исомов Б. С.	
Tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati.....	70
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda DXSHning o'rni: madaniyat va sport sohasida imkoniyatlar	78
Baykalonov Jalil G'aybulloyevich	
Анализ состояния и перспективы развития активного и спортивного туризма в Узбекистане.....	93
Бойко Фарида Чингисовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Переоценка и фальсификация стоимости имущества: международные практики, риски и пути решения.....	99
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
Hudud sanoati tarkibiy o'zgarishlarini prognozlash usuli.....	106
Djumayev Farrux Toshmurotovich	
Углеродный след и декарбонизация промышленности Узбекистана: роль возобновляемой энергетики и международный опыт	111
Авезова Нилуфар Раббанакуювна, Ощепкова Эльвира Ахтемовна, С.М. Махмудов, А.А. Холиков, Авезова Нилуфар Раббанакуювна	
The process of developing startups based on management principles	119
Ilxamov Azizbek Yodgor o'g'li	
The impact of economic policy on non-performing loans: the case of Uzbekistan.....	126
Jalalov Mashkhurbek Gaybullo ugli	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	134
Исомов Б. С.	



Ko'p kvartirali uylarni boshqaruv organlari tomonidan aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni qo'llab quvvatlashni takomillashtirish	138
Umarov Begzodbek Jaloldinovich	
O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional asoslari.....	143
Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich	
Davlat - xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini oshirish.....	150
Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich, Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari.....	155
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Tijorat banklari likvidligini tartibga solish yo'llari.....	160
Tursunpo'latov Sohnbazar Kasimjon o'g'li, Nomozova Mohinur Maxmud qizi	
Atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishda yashil moliya vositalarining roli: xalqaro tajriba va O'zbekiston imkoniyatlari	163
Yuldasheva Madina Tohir Qizi	
Geofazoviy ma'lumotlar asosida hududlarning farovonlik darajasini aniqlash	173
Toymasov Zufarjon Zokir o'g'li	
Методы и критерии оценки эффективности конкурентоспособности предприятия	179
Кучаров Абдор Сабижанович, Бобожонов Азиз Бабаханович, Алижанова Камила Тохир кизи	
Korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	187
Narbayerova Dilnoza Darvishaliyevna	
Development of entrepreneurship in Uzbekistan: management strategies in the context of economic reforms	192
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
Aloqa korxonalari xizmat faoliyatida diversifikatsiya qilishning ilmiy baholash usullari va ulardan foydalanish.....	197
Tursunova Mastura Taxirovna	
Developing effective marketing strategies for tourism development in Uzbekistan	204
Fayzullayev Nodirbek Baxtiyor o'g'li	
Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	208
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzayevich	
Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida investitsiya loyihalarini bank kreditlari orqali moliyalashtirish.....	212
Jamalova Dilnoza Egamberdiyevna	
Цифровизации системы стратегического управления предприятий нефтегазовой отрасли Республики Узбекистан.....	217
Азимов Кабул	
Индекс устойчивости региона против бедности (poverty resilience index – pri): на примере бухарской области Республики Узбекистан (2024)	223
Мухамедова Мадинабону Мехридиновна	
Экономические аспекты внедрения цифровых технологий в полиграфии.....	230
Юсупхужаева Шахноза Музаффар кизи	
Mintaqalararo iqtisodiy hamkorlikni shakllantirish va barqaror rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	233
Sattorov R. A.	
Web3'da real vaqt ma'lumot sinxronizatsiyasi — tarmoqdagi kechikishlar va ularni kamaytirish texnologiyalari.....	240
Raimov Ulugbek Yorqinbek o'g'li	
Tijorat banklarining likvidligini tartibga solish amaliyotining dolzarb masalalari	246
Sayfutdinov Bobur Nodirovich	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	255
Yuldoshev Otabek Jovli o'g'li	



TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Yuldoshev Otabek Jovli o'g'li

“Biznesni rivojlantirish banki”

ATB Toshkent shahar hududiy boshqarmasi
kreditlarni boshqarish bo'limi yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish masalalari tahlil qilingan bo'lib, mavzuga doir xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari o'rganilgan. Shuningdek, maqolada tijorat banklarining fond bozoridagi ishtiroki, resurslarni jalb etishdagi investitsiya strategiyalari, sohalarga ajratilgan kreditlar va moliyalashtirishdagi sifat ko'rsatkichlari ko'rib chiqilgan. Qolaversa, tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirishda zamonaviy boshqaruv mexanizmlari, risklarni boshqarish hamda resurslardan oqilona foydalanishning o'rni ta'kidlangan. Maqola doirasida bank sektori va qimmatli qog'ozlar bozorining o'zaro aloqasi natijasida iqtisodiyotning boshqa sektorlariga ta'siri ham ko'rsatib o'tilgan. Mazkur mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar asosida tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha ilmiy xulosalar va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, investitsion jozibadorlik, qimmatli qog'ozlar bozori, resurs, kredit, moliyalashtirish, sektor, kapital.

Abstract: This article analyzes the issues related to enhancing the investment attractiveness of commercial banks in Uzbekistan, incorporating the opinions of both foreign and local economists on the subject. It examines commercial banks' participation in the securities market, investment strategies for resource mobilization, sectoral credit allocation, and quality indicators in financing. Furthermore, the article highlights the role of modern management mechanisms, risk management, and efficient use of resources in improving the operational efficiency of commercial banks. Within the scope of the study, the interconnection between the banking sector and the securities market and its impact on other sectors of the economy are discussed. Based on the conducted research, scientific conclusions and recommendations aimed at increasing the investment attractiveness of commercial banks are presented.

Key words: commercial banks, investment attractiveness, securities market, resources, credit, financing, sector, capital.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы повышения инвестиционной привлекательности коммерческих банков Узбекистана с учетом мнений зарубежных и отечественных экономистов по данной теме. Рассматривается участие коммерческих банков на рынке ценных бумаг, инвестиционные стратегии привлечения ресурсов, распределение кредитов по секторам и качественные показатели финансирования. Также подчеркивается роль современных механизмов управления, управления рисками и рационального использования ресурсов для повышения эффективности деятельности коммерческих банков. В статье обсуждается взаимосвязь банковского сектора и рынка ценных бумаг, а также их влияние на другие сектора экономики. На основе проведенных исследований сформулированы научные выводы и рекомендации по повышению инвестиционной привлекательности коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, инвестиционная привлекательность, рынок ценных бумаг, ресурсы, кредиты, финансирование, сектор, капитал.

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, erishilayotgan ijobiy natijalarda iqtisodiyotning modernizatsiyasi, ayniqsa, faol investitsion siyosat olib borish muhim o'rin tutadi. Shu jarayonda tijorat banklarining investitsion faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishda asosiy moliyaviy vositachilardan biri sifatida ishtirok etadi. Tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va infratuzilmani modernizatsiya qilish orqali hududlarning iqtisodiy salohiyati oshib bormoqda. Natijada, bu jarayon nafaqat hududiy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlaydi, balki umumiy investitsion muhitning jozibadorligini kuchaytirib, mamlakat miqyosida raqobatbardosh iqtisodiy tizim shakllanishiga xizmat qiladi.

Shularni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida” [1] PF-5992-son¹

¹ <https://lex.uz/docs/-4811025>



Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon doirasida moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va natijada ilg'or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratildi.

Shuningdek, xususiy sektor rivojlanishini rag'batlantirish, banklarning investitsion jozibadorligini, bank xizmatlari ommabopligi va sifatini oshirish maqsadida bank sektorini tubdan transformatsiya qilish bo'yicha bir qator vazifalar belgilandi. Jumladan, bank tizimi samaradorligini oshirish uchun teng raqobat muhitini yaratish, davlat resurslariga qaramlikni kamaytirish, xizmatlarni modernizatsiya qilish va faoliyatni avtomatlashtirish ishlari izchil davom ettirilmoqda. Shu jarayonda davlat ulushi mavjud tijorat banklarini transformatsiya qilish, zamonaviy standart va texnologiyalarni joriy etish, aksiyalarni malakali investorlarga sotish orqali sektor barqarorligi mustahkamlanmoqda.

Rejalarga ko'ra, 2025-yil yakuniga qadar davlat ulushi bo'lmagan bank aktivlari ulushi 15 foizdan 60 foizga, xususiy sektor oldidagi majburiyatlar ulushi 28 foizdan 70 foizga yetkazilishi, kamida uchta bankka strategik xorijiy investorlar jalb qilinishi, shuningdek, nobank kredit tashkilotlari ulushi 0,35 foizdan 4 foizgacha oshirilishi bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Bunday islohotlarning samarali amalga oshirilishi, avvalo, mamlakatdagi investitsion jarayonlar, davlatning investitsion siyosati, uning ustuvor yo'nalishlari hamda tijorat banklarining faolligi bilan bevosita bog'liqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yevropa universitetlari institutining (European University Institute, EUI) tarkibidagi Robert Shuman markazi qoshida faoliyat yurituvchi ilmiy-ta'lim muassasasi professori T. Beck o'z tadqiqotlarida tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirishda likvidlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, yetarli likvidlik mavjud bo'lganda banklar real sektor korxonalariga ko'proq mablag' yo'naltira oladi va bu investitsiya faolligini oshiradi. Qolaversa, raqobat hamda samarali moliyaviy vositachilik mexanizmlari bank tizimiga kapitalni yuqori rentabelli loyihalarga yo'naltirish imkonini berib, iqtisodiy o'sish va ish o'rinlari yaratishda muhim rol o'ynaydi [2]. Fikrimizcha, likvidlikni samarali boshqarish va raqobatni rivojlantirish bank tizimining investitsion faoliyatini yanada kuchaytiradi, biroq bu jarayon tartibga solish siyosati va bozor intizomi bilan uyg'unlashgandagina barqaror natija beradi.

Jahon bankining yetakchi mutaxassislari A. Demirguch-Kunt va H. Huizinga olib borgan ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, banklarning investitsion jozibadorligi ularning rentabelligi (asosan foiz marjasi va foizdan tashqari daromadlar) hamda institutsional infratuzilmasiga bog'liq. Ularning ta'kidlashicha, korporativ boshqaruvni mustahkamlash, kapital yetarililigini oshirish va buxgalteriya hisoboti standartlarini yaxshilash natijasida investor ishonchi ortadi. Mazkur islohotlar banklarning regulyatorlik barqarorligini kuchaytiradi, nazoratdagi xatarlarni kamaytiradi va kapital xarajatlarini pasaytiradi. Shu bilan birga, bank faoliyatidagi samaradorlik, xarajat nazorati va raqamli texnologiyalar investorlar e'tiborini jalb qiladi [3]. Fikrimizcha, banklarning investitsion jozibadorligi faqat moliyaviy ko'rsatkichlargagina emas, balki boshqaruv sifati va shaffoflikka ham bevosita bog'liq. Agar bu omillar uyg'un rivojlansa, banklar nafaqat kapital xarajatlarini kamaytiradi, balki investorlar ishonchini ham barqaror ravishda oshiradi.

AQShning Kaliforniya shtatida joylashgan Stanford universiteti hududidagi Hoover ilmiy-tadqiqot instituti professori R. Levine o'z ilmiy izlanishlarida tijorat banklarining moliyaviy rivojlanishi samarali bank tizimini shakllantirish, kapitalni oqilona taqsimlash va mamlakat sanoat tarmoqlarining rivojlanishiga hissa qo'shish imkonini berishini ta'kidlagan. Unga ko'ra, agar banklar kredit resurslarini eng yuqori chegaraviy rentabellikka ega korxonalarga samarali yo'naltira olsa, bank sektori investitsiya jarayonlarida o'z o'rnini tezroq va mustahkam egallaydi [4]. Fikrimizcha, moliya institutlari iqtisodiyotda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ularning moliyaviy barqarorligi banklarning investitsion jozibadorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Tijorat banklari moliya bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytirish natijasida ularning daromadliligi va barqarorligini yanada oshirish mumkin.

Professor A. Omonovning fikricha, tijorat banklari regulyativ kapitali tarkibida mustaqil balansga ega bo'lmagan sho'ba korxonalariga jalb qilingan qo'yilmalar mavjud emas. U tijorat banklari qoshida sho'ba qurilish tashkilotlarini tashkil etish zarurligini ta'kidlab, bu chorani banklarga resurslardan samarali foydalanish imkonini beruvchi vosita sifatida ko'rsatadi. Shuningdek, u bunday tashabbus aholining turmush darajasini oshirishda banklarning ishtirokini faollashtiradi, ularning investitsion jozibadorligini kuchaytiradi va kapitalni iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirish jarayonini tezlashtiradi deb hisoblaydi [5]. Fikrimizcha, bunday mexanizm tijorat banklariga o'z investitsion salohiyatini yanada samarali ishga solish imkonini beradi. Natijada, banklar ichki va tashqi investorlar uchun yanada jozibador moliyaviy institutga aylanadi.

Mahalliy iqtisodchi olim Sh. Abdullayevaning fikricha, tijorat banklari xizmatlarni raqamlashtirish (to'lov tizimlari, e-banking, karta ekotizimi) orqali iste'molchilar va korporativ omonatchilarning ishonchini oshirish hamda moliyaviy bazani kengaytirish imkoniga ega. U, shuningdek, foizdan tashqari xizmatlardan olingan



daromadlarni diversifikatsiya qilish rentabellik ko'rsatkichlarini yaxshilashini ta'kidlaydi. Mijozlarga ochiq hisob-kitob va ma'lumotlarga asoslangan kredit baholash tizimi esa investorlar uchun axborot assimetriasini kamaytiradi [6]. Fikrimizcha, bu yondashuv banklarning texnologik salohiyatini oshiradi, ularni global moliya bozorida raqobatbardosh qiladi va shaffoflik hamda tezkor xizmat ko'rsatish orqali investorlar ishonchini mustahkamlaydi.

Tadqiqotchi M. Sadullayevaning ta'kidlashicha, mahalliy qarz bozorlari rivojlanishi va tijorat banklarining obro'li obligatsiyalar chiqarish imkoniyati banklar uchun moliya manbalarini diversifikatsiya qilishga zamin yaratadi. Uning fikriga ko'ra, mahalliy valyutadagi obligatsiyalar qat'iy oshkoralik va mustaqil reytinglar bilan birgalikda pensiya jamg'armalari hamda sug'urta kompaniyalarining e'tiborini jalb etadi. Qolaversa, daromadga yo'naltirilgan mablag'lar va kapital rejalari investorlarning risk darajasini kamaytiradi [7]. Bizningcha, bu kabi mexanizm tijorat banklarini ichki moliya bozorida yanada faol va mustaqil ishtirokchiga aylantiradi, ularning tashqi moliyaviy oqimlarga qaramligini kamaytiradi va milliy valyuta barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Maqolada tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llariga oid ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, sintezlash va mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatining faollashuvi hamda iqtisodiyotning real sektoriga kapital oqimini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida tijorat banklarining ushbu jarayondagi roli sezilarli darajada ortmoqda. So'nggi yillarda banklar tomonidan ajratilayotgan kreditlar hajmi keskin o'sib, ularning investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi ahamiyati yanada mustahkamlanmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil yakunlariga ko'ra, tijorat banklari tomonidan ajratilgan umumiy kredit portfeli 460 trillion so'mdan oshgan bo'lib, shundan taxminan 150 trillion so'mi uzoq muddatli investitsiyaviy kreditlarga to'g'ri keladi [8]. Bu holat banklarning nafaqat qisqa muddatli aylanma mablag'larni ta'minlashda, balki iqtisodiyotning tarkibiy modernizatsiyasini amalga oshiruvchi yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirishda ham faol ishtirok etayotganidan dalolat beradi.

Kreditlarning sohaga taqsimlanishini tahlil etganda, ularning aksariyati sanoat, qurilish va infratuzilma sohalariga yo'naltirilgani, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va innovatsion texnologiyalar sohalariga esa kamroq e'tibor berilayotgani aniqlanadi. Bu holat iqtisodiy diversifikatsiya va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun tijorat banklari faoliyatini yanada samarali tashkil etishni talab qiladi. Shuningdek, banklar moliyalashtirishda asosan an'anaviy kreditlashga tayanib, lizing, faktoring va kafillik kabi zamonaviy instrumentlardan kam foydalanmoqda, bu esa investitsiya risklarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklarining investitsiya strategiyasi moliyaviy resurslarni optimal taqsimlash va maksimal daromad olishga qaratilgan kompleks faoliyat yo'nalishi hisoblanadi. Bu strategiya bank resurslari tuzilmasi, likvidligi, riskka bardoshlilik hamda iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Natijada, banklar mavjud kapitalni samarali boshqarib, iqtisodiyotdagi investitsion muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Strategik yondashuv resurslar taqchilligi sharoitida ustuvor yo'nalishlarni belgilab, uzoq va qisqa muddatli moliyaviy maqsadlarni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Shu bois, investitsiya strategiyasi bank risklarini boshqarish, barqaror foyda olish va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishda muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).



1-rasm. Tijorat banklarining investitsion faoliyat yo'nalishlari [9]



Tijorat banklarining investitsiya strategiyasini shakllantirishda ichki va tashqi omillar majmuasi muhim rol o'ynaydi. Ichki omillarga bankning kapital bazasi, riskka bo'lgan tolerantlik darajasi, likvidlik holati va boshqaruv sifati kiradi. Tashqi omillar esa makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, pul-kredit siyosati, inflyatsiya sur'atlari, moliya bozorining holati hamda tartibga soluvchi organlar talablaridan iborat (1-jadval).

1-jadval. Tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarmoqlar bo'yicha ulushi [8]

Ko'rsatkichlar nomi	01.07.2024 y.		01.07.2025 y.		O'zgarishi, foizda
	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda	
Jami kreditlar	493 952	100%	575 245	100%	16%
Sanoat	139 179	28%	157 600	27%	13%
Qishloq xo'jaligi	51 635	10%	58 031	10%	12%
Qurilish sohasi	12 383	3%	15 213	3%	23%
Savdo va umumiy xizmat	35 680	7%	40 035	7%	12%
Transport va kommunikatsiya	34 050	7%	33 544	6%	-1%
Moddiy va texnik ta'minotni rivojlantirish	3 289	0,7%	4 002	0,7%	22%
Uy-joy kommunal xizmati	2 269	0,5%	2 077	0,4%	-8%
Jismoniy shaxslar	161 071	33%	196 890	34%	22%
Boshqa sohalar	54 395	11%	67 852	12%	25%

Ushbu ma'lumotlarga ko'ra, tijorat banklarining investitsion jozibadorligi asosan sanoat, qishloq xo'jaligi va qurilish sohalariga qaratilgan. Banklar ushbu sohalariga ko'proq moliyaviy resurs ajratish orqali iqtisodiyotning barqaror o'sishiga hissa qo'shmoqda. Shu bilan birga, kredit portfelini diversifikatsiya qilish va zamonaviy moliyalashtirish instrumentlarini kengroq qo'llash investitsiya risklarini kamaytirish hamda investitsion muhitni yanada jozibador qilish imkonini beradi.

Tijorat banklarining resurslarni jalb qilish faoliyati asosan puxta o'ylangan aktiv va passivlarni boshqarish strategiyasiga tayangan holda amalga oshiriladi. Banklar uchun jalb qilingan mablag'larni yuqori foizlar bilan zarar ko'rmasdan qaytarish va turli xavflardan himoyalanih muhimdir. Buning uchun ular samarali foiz riskini boshqarish tizimini yaratishi lozim. Ushbu tizimning asosiy vazifalari — risklarni aniqlash, ularning hajmini baholash, monitoring va tahlil qilish hamda mavjud xavflarga qarshi turli moliyaviy vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Tijorat banklari faoliyat samaradorligiga eng katta ta'sir ko'rsatadigan xavflardan biri kredit riski va likvidlik riskidan tashqari, foiz stavkasi riskidir. Shunday ekan, moliyaviy bozor ishtirokchisi sifatida har bir bank uchun foiz riskini boshqarish mexanizmini joriy etish zarur. Foiz stavkasi riskini samarali boshqarish — bu nafaqat kreditlar bo'yicha muammolar yuzaga kelmagan holatlarda, balki bankning barqaror faoliyati va uzoq muddatda mavjudligini ta'minlash uchun ham strategik jihatdan muhim yo'nalishdir.


Investitsiyalarni jalb qilish va ularning samaradorligini baholashda iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalar hajmini oshirish hamda ishchi kuchi malakasini yuksaltirishning zamonaviy usullaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Investitsiyalarni maqsadli yo'naltirishga ta'sir qiluvchi omillarni to'liq baholash uchun hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, joylashuvi, infratuzilma obyektlari va boshqa xususiyatlari inobatga olinishi zarur. Shu bilan birga, tijorat banklari investitsion loyihalarni moliyalashtirishda loyihaning sifat ko'rsatkichlariga, xususan, diskontlash stavkasi, sarflanadigan mablag'larni qoplash muddati, rentabellik darajasi, loyihadan keladigan sof daromad, daromadlar indeksi va ichki foyda normasi kabi mezonlarga e'tibor beradi. Bu ko'rsatkichlar loyihaning hayotiyiligi va samaradorligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Bank sektori iqtisodiyotning muhim bo'g'inlaridan biri sifatida o'z faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish uchun doimiy ravishda qo'shimcha resurslarga ehtiyoj sezadi. Resurslarni samarali jalb qilish va ulardan



oqilona foydalanish esa raqobat muhitida yanada murakkablashadi. Shu sababli, tijorat banklari uchun dividend siyosatiga e'tibor qaratish muhimdir. Ustav kapitalini oshirish uchun banklar aksiyalarini qimmatli qog'ozlar bozorida joylashtiradi va ularga mahalliy hamda xorijiy investorlarning qiziqishini oshirishga intiladi. Investorlarni jalb qilishda aksiyalar uchun to'lanadigan dividend miqdori muhim ahamiyatga ega, chunki oqilona dividend siyosati aksiyalarning xaridorgirligini oshiradi.

Hozirgi vaqtda banklar ko'proq kapital yetarliligi bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun qayta emissiyaga e'tibor qaratmoqda. Ustav kapitalining oshirilishi bank aksiyalariga bo'lgan talabni ko'paytiradi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Aksincha, kapital yetishmasligi banklarning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi hamda aksiyalarning likvidligini pasaytirishi mumkin. Shuningdek, birlamchi bozorda bank aksiyalariga bo'lgan talab pastligi va nominaldan yuqori narxda sotish imkoniyatining cheklanganligi banklar uchun muammolardan biridir. Qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanayotgan mamlakatlarda banklarning ikkilamchi bozordagi aksiya kursi samarali dividend siyosatiga bevosita bog'liq bo'ladi. Yuqori dividend to'laydigan banklarning aksiyalari bozorda yuqori baholanishi mumkin, kam dividend to'laydigan banklarning aksiyalari esa nominal qiymatdan yuqori bahoga chiqmaydi (2-rasm).



2-rasm. Tijorat banklarining fond bozorida faoliyat yuritish segmentlari va ularning iqtisodiy ahamiyati [10]

Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklari faolligini yanada oshirish va unga investorlarni jalb qilish uchun har tomonlama qulay sharoitlar hamda imtiyozlar yaratish — davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biridir. Bunday sharoitlarning yaratilishi tijorat banklariga qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar hajmini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Bu esa banklarning likvidligini oshirish, kapital bazasini mustahkamlash hamda investitsion jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Investitsion jozibadorlikning oshishi tijorat banklari uchun yangi moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi, shu orqali ular iqtisodiyotning turli tarmoqlariga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini ko'paytirishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyat samaradorligini oshirish banklarning risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishga, shuningdek, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga, investorlar uchun ham bank aksiyalarining jozibadorligi ortib, ularning qimmatli qog'ozlarga bo'lgan ishonchi mustahkamlanadi.

Natijada, tijorat banklarining fond bozoridagi faolligi nafaqat bank sektorining rivojlanishiga, balki mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish kabi muhim maqsadlarga erishishga xizmat qiladi. Shu sababli, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish hamda tijorat banklarining undagi ishtirokini kuchaytirish davlatning uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida bildirilgan tahlil va mulohazalarni umumlashtirgan holda ta'kidlash lozimki, modernizatsiya qilish jarayonlari kuchayayotgan bir sharoitda tijorat banklarining investitsiya jozibadorligini oshirishda quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Tijorat banklari investorlar uchun jozibadorlikni oshirish maqsadida samarali va barqaror dividend siyosatini ishlab chiqishi lozim. Bu aksiyalarning likvidligini oshiradi va qimmatli qog'ozlar bozorida banklarning obro'sini yaxshilaydi.



Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun ustav kapitalini muntazam oshirib borish zarur. Bu, o'z navbatida, bank aksiyalariga bo'lgan talabni oshiradi va investorlar ishonchini mustahkamlaydi.

Foiz stavkasi, kredit va likvidlik risklarini samarali boshqarish bank faoliyatining barqarorligini ta'minlaydi. Bu investorlar uchun bankning xavfsiz va ishonchli sarmoya obyekti ekanligini ko'rsatadi.

Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llash orqali tijorat banklari yangi investitsion mahsulotlarni yaratishi, shu bilan yangi investorlarni jalb qilishi mumkin.

Tijorat banklari o'z aksiyalarini birlamchi va ikkilamchi bozorlarda faol sotish, shuningdek, investitsion fondlar va boshqa moliyaviy vositalar bilan hamkorlikni kuchaytirishi kerak. Bu esa umumiy investitsion jozibadorlikni oshiradi va moliyaviy bozorlar bilan integratsiyani kuchaytiradi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy taklif va tavsiyalardan kelib chiqqan holda, ularni chuqur o'rganib, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish yaqin kelajakda o'z samarasini beradi. Shuningdek, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarida qulay investitsiya muhitini yaratish orqali davlatning investitsiya jozibadorligini yanada oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. Beck T. et al. Liquidity creation, investment, and growth //Journal of Economic Growth. – 2023. – T. 28. – №. 2. – P. 297-336.
3. Demirgüç-Kunt A., Huizinga H. Financial structure and bank profitability //Available at SSRN 632501. – 2000.
4. Levine R. Finance and growth: theory and evidence //Handbook of economic growth. – 2005. – T. 1. – P. 865-934.
5. Omonov A. A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari // I. f. d. ilm. dar. ol. uch. taqdim et. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – T. 32 b.
6. Sh.Z. Abdullayeva. Pul va banklar: O'quv qo'llanma /; - T.: "Iqtisodiyot-moliya", 2018-yil, 756 b.
7. M. Sadullayeva, Obligatsiyalar orqali kapital jalb qilishning joriy holati. (2023). Iqtisodiyot va ta'lim / 2023-yil 4-son, 146-149 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari - <https://cbu.uz>
9. Witbooi P. J., van Schalkwyk G. J., Muller G. E. An optimal investment strategy in bank management //Mathematical Methods in the Applied Sciences. – 2011. – T. 34. – №. 13. – P. 1606-1617.
10. Hassan M. S., Kalim R. Stock market and banking sector //Pakistan Economic and Social Review. – 2017. – T. 55. – №. 1. – P. 1-30.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
